O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:_____________

NORMURODOVA RO‘ZIXOL URALOVNA

TABIIY JARAYONLARNING MATEMATIK MODELI

70540101 – Matematika (yo‘nalishlar bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: **f.-m.f.n., dots. Qurbonov O.**

TERMIZ-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-apreldagi №20-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan. Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti “Algebra va geometriya” kafedrasida bajarilgan.Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:	___________	dots. O. Qurbonov
Kafedra mudiri:	___________	dots. S. Choriyeva
Magistratura bo‘limi boshlig‘i:	___________	PhD. A.B. Narbayev

70540101 – Matematika (yo‘nalishlar bo‘yicha) mutaxassisligi magistranti Normurodova Ro’zixol Uralovna **“Tabiiy jarayonlarning matematik modeli”** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYA

Tayanch so‘zlar: Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamalari, boshlang’ich-chegaraviy masala, ekstremum prinsipi, yagonalik teoremasi, aralash masala, nolokal masala.

Tadqiqot obektlari: Issiqlik o’tkazuvchanlik jarayonlari, qattiq jismlar nazariyasi, nolokal, ichki nolokal masalalarni yechimini topishga qaratilgan.

Ishning maqsadi: Issiqlik o’tkazuvchanlik jarayonlarining noklassik modeli va boshqa sohalarda sodir bo’ladigan issiqlik jarayonlarining matematik modellarining o‘rni va rolini ko‘rsatib berish.

Dissertatsiyada

- Ichki nolakal va nolakal masalalar o`rganiladi.

Tadqiqot metodlari: tadqiqot ishida integral tenglamalar nazaryasining metodlaridan, shuningdek chegaraviy masalalarni yechish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

Ushbu dissertatsiya oliy o’quv yurtlarida o’tkazish mumkin bo‘lgan bir qancha tajribalar yoritilgan, tahlil qilingan, asoslangan va ma’lumotlar foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tajribalarni o‘tkazish metodikasi va tajribalarning fizik asoslari ochib berilgan. Magistirlik dissertatsiyasida qaralayotgan mavzu bo`yicha bir qancha yetuk matematiklar izlanishlar olib borilgan. Ushbu ishda oldin o`rganilmagan jarayonlar o`rganiladi.

Amaliy ahamiyati: olingan natijalar nazariy ahamiyatga ega bo`lib, ulardan tabiatda uchraydigan turli sohalarning, issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonlarining matematik modellarini qurishda tadbiq etish mumkin. Shu bilan birga dissertatsiya ishini differinsial tenglamalar va matematik fizik tenglamalari sohasida maxsus kurslarni o`qishda foydalanish mumkin, issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonlarining noklassik modelini mukammal o'rganish turli fizikaviy masalalarni yechish va umumiyroq bo'lgan xususiy hosilali differentsial tenglamalar nazariyasini yaratishga imkoniyat beradi, o'quv materiallarini o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar to'liq nazariy ahamiyatga ega. Dissertatsiyaning materiallari matematika (yo'nalishlari bo'yicha) o'qiyotgan magistr talabalarga o'quv dasturini takomillashtirishda foydalanilmoqda. Issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonlarining noklassik modelini qurish va uni tadqiq etish, sodda tajribalarni ko'rsatish va ularning moxiyatini ochib berishga undaydi.

Qo'llanilish sohasi: ish nazariy, oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar dissertatsiya ishlarida, "Matematika" yo'nalishi talabalari BMI larida ma'lumotnoma sifatida foydalanishlari mumkin.

"Mathematical model of natural processes "

ANATATION

Keywords: Physics, circle, thermal expansion, extracurricular, optional classes.

Objects of research: The educational process aimed at ensuring the continuity and continuity of physics education in the system of general secondary and secondary special education.

Purpose: To demonstrate the role and place of physics clubs in ensuring the continuity and continuity of physics courses in general secondary schools, academic lyceums and higher education systems.

Research methods: Analytical analysis, pedagogical observation, pedagogical experience, pedagogical design, systematization and mathematical-statistical methods.

Gold results and their news: Circles are one of the main types of extracurricular and extracurricular activities, and the following results were obtained in these three dissertations.

Practical significance: Project development projects on specific research topics have helped to increase the effectiveness of learning materials.

Research-related developments, as well as teaching materials designed on the basis of the new program, can be used in the organization of specific lessons in general secondary schools and secondary special education institutions.

Level of Implementation: Demonstrating simple interesting experiments in physics circles and revealing their essence enhances students 'interest in physics and encourages thinking.

The results obtained in this dissertation can be used in the organization of clubs in secondary schools and universities of the Republic.

Field of application: Higher education and general secondary schools.

MUNDARIJA

KIRISH

Hozirgi kunda ilm–fanga Prezidentimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqda [1]. Ayniqsa, 2023 yilning Prezidentimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi hamda bu yilda matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi [2] biz yosh matematiklarni ilm-fan bilan shug'ullanishga ilhomlantirishi ajab emas.

Respublikamizda yoshlarning bilim olishi, mamlakatimizning rivojlanishiga ularni keng jalb qilish bo'yicha 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2909 qarori asosida olib borilayotgan ishlar va tadbirlarda, shuningdek rejalashtirilayotgan vazifalarda oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim da ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik institutlar bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, iqtidorli talaba yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanisha keng jalb qilish orqali ularning bilim darajasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berilgan. "Bizning vazifamiz-to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat"

Muhammad al-Xorazmiy, Axmad Farg'oniy Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' ajdodlarimiz tamal toshni qo'ygan matematika fani ilm-fan va texnikaning zamonaviy tarmoqlari jadal rivojlanishi munosabati bilan hozirgi kunda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Axborot –kommunikatsiya texnoligiyalari, tibbiyot, biologiya, raqamli iqtisodiyot sohasida va boshqa ko'plab sohalarda uning roli ayniqsa ortdi.

Уurtimiz istiqlolga erishgan ilk kunlardanoq, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari Vatanimiz mustaqilligi va ozodligi tufaylidir.

Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy –huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta’sir etadi hamda ijtimoiy sohalar me’yoriy mohiyatini, kamolot darajasini belgilab beradi.

O'zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida [2-5] ta’kidlanganidek, mamlakatimiz ta’lim tizimi xodimlari oldida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim tarbiya jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishni ta’minlash asosiy vazifa qilib qo‘yilgan.

Shu ma’noda olib qaraganda, yoshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarini kun tartibiga dadil qo‘yadigan va uni yecha oladigan, fikr yuritishning yuksak madaniyatini egallagan, siyosiy hamda ijtimoiy iqtisodiy hayotda o‘ziga mustaqil yo‘l topa oladigan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak [6]. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusi ana shu talab va vazifalardan kelib chiqib tanlandi.

Mazkur dissertatsiya ishi parabolik tipdagi tenglamalar uchun noklassik masalalarga bag‘ishlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: Dissertatsiyada parabolik tipdagi tenglamalar uchun noklassik masalalar ya’ni noklassik masala yechimining yagonaligi va mavjudligi o‘rganildi. Matematik fizikaning asosiy juda ko‘p masalalarini funksianallarning ekstrimumi masalasi ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Bunday tavsiflashda unga mos bo‘lgan chegaraviy masalalar yechimini tabiiy aniqlash iomkoniyati mavjud va shu bilan birga, ularni yechishga ma’lum usullarni qo‘llash mumkin. XX asrga kelib ularni amaliy masalalarga tadbig‘iga talab ortganligi tufayli izlanishlar kuchaydi va masalalarning qo‘yilishiga aniqlik kiritilib mutaxassislar oldiga butunlay yangi tipdagi masalalar qo‘yildi. Bu masalalar optimal boshqaruv masalalari degan nomni oldi. Har qanday optimal boshqaruv masalasi quyidagilar bilan harakterlanadi:

Obyektning holatini aniqlovchi differensial tenglama va shartlar. Tenglama va shartlar harakteri qabul qilingan matematik model orqali aniqlanadi. Masala tenglamasidagi o‘zgaruvchilarning obyekt parametrlarini aniqlovchi bog‘liq o‘zgaruvchilar guruhi va tashqaridan o‘zgartirish imkonigagina ega bo‘lgan, qiymatlari ma’lum bir funksional fazoning qismi bo‘lgan to‘plamga tegishli boshqaruviga ajratish mumkin.

Mazkur dissertatsiyada parabolik tipdagi noklassik masalalarga oid yangi natijalar olish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqot obyekt va predmeti: Ushbu magistrlik dissertatsiyasining tadqiqod obyekti parabolik tipdagi noklassik masalalar.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Ushbu magistrlik dissertatsiyasining maqsadi parabolik tenglama uchun bitta noklassik masalani o`rganish, ya’ni parabolik tipdagi nolakal masalalarga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Magistirlik dissertatsiyasida qaralayotgan mavzu bo‘yicha bir qancha yetuk matematiklar izlanishlar olib borgan . Ushbu ishda oldin o‘rganilmagan jarayonlar o‘rganildi. Ya’ni oldin o‘rganilmagan masala o‘rganiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Tabiatdagi juda ko’p tabiiy jarayonlarni matematik moddalari parabolik tenglama uchun chegarali masalalar orqali ifodalanadi. Jumladan muzning erish masalasi, havoning ifloslanishi, turlarning tarqalishi, bakteriyalarning tarqalishi, diffuziya jarayonlari, filtratsiya jarayonlari, o’simliklarning o’sish jarayonlari, va inson organizmidagi hujayralarda kislorod va moddalar almashinuvi jarayonlarining matematik modellari parabolik tipdagi tenglamalarga keltiriladi.

Masalaning qo‘yilishi. $D=\{(x,t):0<x<l,0<t\le T\}$ ***sohada***

$$u_t(x,t)=u_{xx}(x,t),\ \ (x,t)\in D \tag{1}$$

tenglamaning

$$u(x,0)=\varphi(x),\ \ 0\le x\le l \tag{2}$$

boshlang‘ich va chegaraviy

$$u_x(x,0)=\varphi(x),0\le t\le T \quad (3)$$

$$u(l,t)= bu(x_0,t),\ 0\le t\le T \quad (4)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi echimi topilsin.

Bu masalaning yechimi uchun aprior baholar olingan va noma’lum chegara xarakteri o‘rganilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi(tahlili): Parabolik tipdagi tenglamalarning turli ko’rinishlari uchun lokal shartli masalalar juda ko‘plab avtorlar tomonidan o‘rganilgan. Bunday masalalar A.Fridman, Krujkov S.N., Ilin A.M, Salaxiddinov M.S va boshqa olimlar tomonidan o’rganilgan. Hozirgi kunda zamonaviy fanning yutuqlari, shu bilan birgalikda ishlab chiqarishning turli masalalari hamda fizika, mexanika, texnika, biologiya, ekologiya va sotsiologiya kabi fanlarning juda ko‘plab muammolarining matematik modellari parabolik tipdagi tenglamalarning turli ko‘rinishlari uchun nolokal masalalarni o‘rganishni talab qilmoqda. Nolokal masalalar bilan hozirgi kunda Jo‘rayev T.J., Sopuyev A.O., Egamberdiyev U.O., Toxirov J.O., Qodirov F.E., To’rayev R.N. va boshqa avtorlar dunyoning turli mamlakatlarida juda ko‘plab ilmiy maktablar olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi: Magistirlik dissertatsiyasida haqiqiy o‘zgaruvchili funksiyalar nazaryasi, funksional analiz va matematik fizika usullaridan biri-issiqlik tarqalish tenglamasini o‘zgaruvchilarni ajratib yechish usulidan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Magistirlik dissertatsiyasida olinadigan natijalar nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan tabiatda uchraydigan turli jabhalarning, ekologik jarayonlarning matematik modellarini qurishda tadbiq etish mumkin. Shu bilan birga dissertatsiya ishini differinsial tenglamalar va matematik fizika tenglamalari sohasida maxsus kurslarni o‘qishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi: Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat bo‘lib, 60 betni tashkil etgan

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi: Magistirlik ishining kirish qismida asosiy belgilash, shu sohada qilingan ishlar haqida qisqacha ma’lumot va olingan natijalar bayon qilinadi. Asosiy qismida esa, olingan natijalar to‘laligicha keltiriladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobda boshlang‘ich tushunchalar va masalaning qo‘yilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nolakal va birinchi chegaraviy masalaning qo‘yilishi, keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi parabolik tenglamalar va ularni yechish usullariga bag’ishlangan. Bu bobda parabolik tipdagi tenglamalar uchun ekstremum prinsipi, oddiy qatlam va ikkilangan qatlam potensiallari, masala yechimining mavjudligi va yagonaligi o‘rganilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobi parabolik tenglama uchun noklassik masalani o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda parabolik tipdagi noklassik masala yechimining yagonaligi va mavjudligi o‘rganilgan. Qaralayotgan masala qo‘yilgan va masala yechimi uchun aprior baho olingan.

I BOB. XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN MASALALAR.

Ushbu bobda xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining asosiy fundamental tushunchalaridan biri ko‘p o‘zgaruvchili ikkinchi tartibli tenglamalarni turlarga ajratish o‘rganilgan. Shu bilan birga issiqlik tarqalish tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning qo‘yilishi keltirilgan. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, boshlang‘ich-chegaraviy masalaning qo‘yilishi matematik fizika tenglamalari fanining klassik masalaridan biri bo‘lib, unda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.1-§. Matematik modellar haqida umumiy ma’lumotlar

Qattiq jism (x, y, z) nuqtaning t vaqtdagi harorati $u = u(x, y, z)$ bo’lsin. Agar qattiq jismning turli qismlarining harorati turlicha bo’lsa, u holda qaralayotgan qattiq jismda ko’proq isigan qismidan kamroq isigan qismiga tomon issiqlik harakati sodir bo’ladi. Issiqlik tarqalish tenglamasini keltirib chiqarish Fur’e qonuniga asoslanadi. Bunga ko’ra ΔS sirtdan Δt vaqtda o’tuvchi ΔQ issiqlik miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta Q = -k\frac{\partial u}{\partial \mathrm{N}}\ \Delta S \Delta t, \tag{1.1}$$

Bu yerda $k -$ issiqlik o’tkazuvchanlik koeffisiyenti , $\frac{\partial u}{\partial \mathrm{N}}$ esa ΔS sirtga o’tkazilgan N normal bo’yicha olingan hosila, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\frac{\partial u}{\partial \mathrm{N}} = \frac{\partial u}{\partial x}\cos(\mathrm{N}, x) + \frac{\partial u}{\partial y}\cos(\mathrm{N}, y) + \frac{\partial u}{\partial z}\cos(\mathrm{N}, z) = (grad\, u, \mathrm{N}),$$

Ya’ni normal bo’yicha olingan hosila ikkita

$$\mathrm{N} = i\cos\alpha + j\cos\beta + k\cos\gamma$$

$$grad\, u = \nabla u = i\frac{\partial u}{\partial x} + j\frac{\partial u}{\partial y} + k\frac{\partial u}{\partial z}$$

vektorlarning skalyar ko'paytmasiga teng.

Bu yerda i, j, k −koordinata o'qlarining yo'naltiruvchi birlik vektorlari,α, β, γ esa N normal bilan mos ravishda Oy, Ox, Oz o'qlar orasidagi burchak.

Yuqorida keltirilgan (1.1) formuladagi minus ishora issiqlikning jismning ko'proq isigan nuqtasidan kamroq isigan qismiga issiqlik harakatini bildiradi.

Endi faraz qilaylik, qaralayotga jism izotrop jism bo'lsin, ya'ni jismning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti k faqat (x, y, z) nuqtaga bog'liq, u ga va $\frac{\partial u}{\partial \mathrm{N}}$ ga bog'liq emas.

Agar qattiq jism anizatrop bo'lsa, u holda

$$k = k(x, y, z, N, u, \frac{\partial u}{\partial \mathrm{N}})$$

bo'ladi.

Issiqlik tarqalish tenglamasini keltirib chiqarish uchun qattiq jismdan (z, y, z) nuqtani o'z ichiga olgan yetarlicha kichik ixtiyoriy V parallelepiped ajratib olamiz, ya'ni

$$V = \{(x, y, z): x < \xi < x + \Delta x, y < \eta < y + \Delta y, z < \zeta < z + \Delta z\}$$



Endi V parallelepiped uchun issiqlik balansini tuzaylik. Parallelepipedning $\xi = x$ yuzasi orqali Δt vaqtda o'tgan issiqlik miqdori (1) formulaga ko'ra

$$Q_x = -k(x,y,z)\frac{\partial u(x,y,z,t)}{\partial x}\Delta y\Delta z\Delta t.$$

Parallelepipedning $\xi = x + \Delta x$ yuzasidan o'tayotgan issiqlik miqdori esa

$$Q_{x+\Delta x} = -k(x+\Delta x,y,z)\frac{\partial u(x+\Delta x,y,z,t)}{\partial x}\Delta y\Delta z\Delta t$$

ga teng. U holda V hajmda Ox o'qi bo'yicha qolgan issiqlik miqdori

$$\Delta Q_x = Q_x - Q_{x+\Delta x} = \Delta y\Delta z\Delta t \times \left(k(x+\Delta x,y,z)\frac{\partial u(x+\Delta x,y,z,t)}{\partial x} - k(x,y,z)\frac{\partial u(x,y,z,t)}{\partial x}\right) = \frac{\partial}{\partial x}\left(k(x',y,z)\frac{\partial u(x',y,z,t)}{\partial x}\right)\Delta x\Delta y\Delta z\Delta t\,,\ x' \in (x, x+\Delta x)$$

Xuddi shu kabi V parallelepipedning qolgan yoqlari bo'yicha issiqlik miqdori

$$\Delta Q_y = \frac{\partial}{\partial y}\left(k(x,y',z)\frac{\partial u(x,y',z,t)}{\partial y}\right)\Delta y\Delta x\Delta z\Delta t\,,\ y' \in (y, y+\Delta y)$$

$$\Delta Q_z = \frac{\partial}{\partial z}\left(k(x,y,z',)\,\frac{\partial u(x,y,z',t)}{\partial z}\right)\Delta y\Delta x\Delta z\Delta t\,,$$

$$z' \in (z, z+\Delta z)$$

U holda V hajmda Δt vaqtda oqayotgan umumiy issiqlik miqdori

$$= \Delta Q_x + \Delta Q_y + \Delta Q_z =$$

$$\left\{\frac{\partial}{\partial x}\left(k(x',y,z)\,\frac{\partial u(x',y,z,t)}{\partial x}\right) + \frac{\partial}{\partial y}\left(k(x,y',z)\,\frac{\partial u(x,y',z,t)}{\partial y}\right) + \frac{\partial}{\partial z}\left(k(x,y,z',)\,\frac{\partial u(x,y,z',t)}{\partial z}\right)\right\}\Delta \mathrm{x}\,\Delta y\Delta z\Delta t, \qquad (1.2)$$

formula bilan aniqlanadi.

Faraz qilaylik, qaralayotgan V parallelepipedning ichida issiqlik manbalari bo'lsin. Parallelepipeddagi issiqlik manbalarining zichligi $F(x,y,z,t)$ bo'lsin, ya'ni $F(x,y,z,t)$ funksiya Δt vaqt ichida ΔV hajmdan ajralib chiqqan yoki unga singib ketgan issiqlik miqdori

$$Q_2 = F(x,y,z,t)\Delta x\,\Delta y\Delta z\Delta t, \qquad (1.3)$$

bo'ladi.

Qaralayotgan qattiq jismning Δt vaqtdagi haroratini o'lchash uchun $\Delta_t u$ sarflangan issiqlik miqdori

$$Q_3 = \Delta_t u\; c(x,y,z,)\; p(x,y,z)\Delta x\Delta y\Delta z$$
$$= [u(x,y,z,t+\Delta t) - u(x,y,z,t)]c(x,y,z)p(x,y,z)\Delta x\,\Delta y\Delta z.$$

Bu yerda $p(x,y,z)$ qattiq jismning , $c(x,y,z)$ esa uning solishtirma issiqlik sig'imi bo'lib, ularni argumentlarining uzluksiz funksiyasi deb hisoblaymiz.Lagranj teoremasiga asosan sarf qilingan issiqlik miqdori uchun quyidagi

$$Q_3 = \frac{\partial u(x,y,z,t')}{\partial t}\;\Delta t\; c(x,y,z)p(x,y,z)\Delta x\,\Delta y\Delta z, \qquad (1.4)$$

Ifodani olamiz. Bu yerda $t' \in (t, t+\Delta t)$.

Endi V hajm uchun issiqlik balansi tenglamasini tuzamiz. Ma'lumki

$Q_3 = Q_1 + Q_2$, u holda (2)-(4) ifodalardan

$$\frac{\partial u(x,y,z,t')}{\partial t} \ \Delta t\, c(x,y,z)p(x,y,z)\Delta x\ \Delta y \Delta z$$
$$= \left\{ \frac{\partial}{\partial x}\left(k(x',y,z)\frac{\partial u(x',y,z,t)}{\partial x}\right) + \frac{\partial}{\partial y}\left(k(x,y',z)\frac{\partial u(x,y',z,t)}{\partial y}\right)\right.$$
$$+ \qquad \left.\frac{\partial}{\partial z}\left(k(x,y,z',)\frac{\partial u(x,y,z',t)}{\partial z}\right)\right\}\Delta \mathrm{x}\ \Delta y \Delta z \Delta t$$
$$+ F(x,y,z,t)\Delta x\ \Delta y \Delta z \Delta t.$$

kelib chiqadi. Oxirgi ifodani $\Delta \mathrm{x}\ \Delta \mathrm{y} \Delta \mathrm{z} \Delta \mathrm{t} \neq 0$ ga qisqartirib so'ngra $\Delta \mathrm{x} \to 0, \Delta \mathrm{y} \to 0, \Delta \mathrm{z} \to 0$ va $\Delta \mathrm{t} \to 0$ limitga o'tsak, ushbu

$$\mathrm{c(x,y,z)p(x,y,z)}\frac{\partial \mathrm{u(x,y,z,t')}}{\partial \mathrm{t}} =$$
$$\frac{\partial}{\partial \mathrm{x}}\left(\mathrm{k(x,y,z)}\frac{\partial \mathrm{u(x,y,z,t)}}{\partial \mathrm{x}}\right) + \frac{\partial}{\partial \mathrm{y}}\left(\mathrm{k(x,y,z)}\frac{\partial \mathrm{u(x,y,z,t)}}{\partial \mathrm{y}}\right) +$$
$$\frac{\partial}{\partial \mathrm{z}}\left(\mathrm{k(x,y,z)}\frac{\partial \mathrm{u(x,y,z,t)}}{\partial \mathrm{z}}\right) + \mathrm{F(x,y,z,t)} = \mathrm{div(k\,grad\,u)} +$$

$$+\mathrm{F(x,y,z,t)}, \qquad (1.5)$$

Tenglama hosil bo'ladi. Bunda vektor funksiyaning divergentsiyasini quyidagicha tushuniladi:

Agar $a(x,y,z) = (P(x,y,z), Q(x,y,z), R(x,y,z))$ bo'lsa, u holda

$$div\ a(x,y,z) = \frac{\partial P}{\partial x} + \frac{\partial Q}{\partial y} + \frac{\partial R}{\partial z}$$

bo'ladi.

Oxirgi (1.5) tenglama bir jinsli bo'lmagan izotrop qattiq jismning *issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi* deyiladi .

Agar qattiq jism bir jinsli , ya'ni

$c(x,y,z) = const,\ \ p(x,y,z) = const,\ \ k(x,y,z) = const$, bo'lsa, u holda

$$\text{div(k grad u)} = k\left[\frac{\partial}{\partial x}\left(\frac{\partial u}{\partial x}\right) + \frac{\partial}{\partial y}\left(\frac{\partial u}{\partial y}\right) + \frac{\partial}{\partial z}\left(\frac{\partial u}{\partial z}\right)\right] = k = \left(u_{xx} + u_{yy} + u_{zz}\right)$$

$$= k\ \Delta u.$$

bo'ladi. U holda (1.5) tenglama quyidagi

$$u_t = a^2\left(u_{xx} + u_{yy} + u_{zz}\right) + f(x, y, z, t)$$

Ko'rinishga keladi, bu yerda $a^2 = \frac{k}{cp}$, $f(x, y, z, t) = \frac{F(x,y,z,t)}{cp}$.

Agar qaralayotgan bir jinsli qattiq jismda tashqi issiqlik manbalari bo'lmasa , ya'ni $F(x, y, z, t) \equiv 0$ bo'lsa , u holda (1.5) tenglamadan ushbu

$$u_t = a^2\left(u_{xx} + u_{yy} + u_{zz}\right)$$

bir jinsli issiqlik tarqalish tenglamasini olamiz.

Agar u harorat faqat x, y, t koordinatalarga bog'liq bo'lsa u holda bir jinsli yupqa plastinkada issiqlik tarqalish tenglamasiga ega bo'lamiz (1.5) tenglama quyidagi

$$u_t = a^2\left(u_{xx} + u_{yy}\right) + f(x, y, t), u = u(x, y, t)$$

ko'rinishiga keladi.

O'lchamlari chiziqli bo'lgan jismlar uchun, masalan sterjenda issiqlik tarqalish tenglamasi

$$u_t = a^2 u_{xx} + f(x, t), \quad u = u(x, t)$$

ko'rinishda bo'ladi.

1.2-§. Parabolik tenglamalar uchun boshlang'ich va chegaraviy masalalarning qo'yilishi.

Qattiq jismning ixtiyoriy vaqtdagi haroratni aniqlash uchun xususiy hosilali defferensiyal tenglamaning o'zi yetarli bo'lmaydi. Buning uchun masalaning fizik xossasiga asosan jism ichida boshlang'ich vaqtdagi haroratning taqsimlanishi (boshlang'ich shart)ni va jismning sirtida issiqlik rejimi (chegaraviy shartlar)ni bilish zarur.

Chegaraviy shartlar qattiq jism sirtidagi haroratga qarab turlicha berilishi mumkin.

1) Agar qattiq jism sirtining har bir nuqtasida bir xil harorat saqlanayotgan bo'lsa, u holda chegaraviy shart

$$u(x,y,z,t)|_S = \mu_1(x,y,z,t), \quad (x,y,z,t) \in S, t \geq 0, \tag{1.6}$$

ko'rinishda beriladi.

Bu yerda S qattiq jismning sirti $\mu_1(x,y,z,t)$, esa S sirtda berilgan funktsiya.

2) Qattiq jismning S sirtida issiqlik berilgan bo'lsin, ya'ni Δt vaqtda qattiq jismning ΔS sirti yuzasidan o'tuvchi issiqlik miqdori berilsa, u holda Fure qonuniga asosan (1.1) formuladan quyidagi

$$q = \frac{\mathrm{q}}{\Delta S\,\Delta t} = -k\,\frac{\partial \mathrm{u}}{\partial N}.$$

formula o'rinli bo'ladi. Bunda ushbu chegaraviy shart

$$\frac{\partial \mathrm{u}}{\partial N} = \mu_2(x,y,z,t) = -\frac{q(x,y,z,t)\partial u}{k(x,y,z,t)\partial u}, \quad (x,y,z,) \in S, \ t \geq 0, \tag{1.7}$$

Kelib chiqadi. $\mu_2\ (x,y,z,t\ ) -$ berilgan funktsiya.

3) Qattiq jism sirtida atrof muhit bilan issiqlik almashinishi sodir bo'layotgan bo'lsa, Nyuton qonuniga asosan Δt vaqtda qattiq jismning ΔS sirtidan atrof muhitga chiqayotgan issiqlik miqdori qattiq jism sirtining haroratidan atrof muhit haroratining ayrimasiga proporsional bo'ladi, ya'ni

$$q = H(u - u_0),$$

Bu yerda H issiqlik almashish koeffisienti bo'lib, $u - u_0$ ayrimaga bog'liq. Energiyani saqlanish qonuniga ko'ra bu issiqlik miqdori Fur'e qonuni bilan aniqlangan issiqlik miqdoriga

$$q = -k\,\frac{\partial \mathrm{u}}{\partial N}$$

teng bo'ladi.

U holda S sirtda ushbu chegaraviy shartni

$$k\,\frac{\partial \mathrm{u}}{\partial N} = H(u - u_0)\,,$$

Olamiz, yoki $h = H/k$ deb almashtirib, S da quyidagi

$$\frac{\partial \mathrm{u}}{\partial N} + hu = hu_0$$

chegaraviy shartni olamiz.

Bundan izotrop qattiq jism uchun chegaraviy shartni quyidagi ko'rinishda

$$\left(\frac{\partial u}{\partial N} + h(x,y,z,t)u\right)\Big|_S = \mu_3(x,y,z,t)\,, \qquad (x,y,z) \in S\,,\ t \geq 0. \qquad (1.8)$$

yozishimiz mumkin.

Shunday qilib, izotrop qattiq jismda issiqlik tarqalish tenglamasi ushun boshlang'ich chegaraviy masalalar quyidagicha qo'yiladi:

Birinchi chegaraviy masala.

Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini ushbu

$G = D \times (0,T) = \{(x,y,z,t) | (x,y,z) \in D \subset R^3,\ \ t \in (0,T)\}$

Silindrik sohada aniqlangan , uzluksiz quyidagi boshlang'ich

$$u(x,y,z,t)|_{t=0} = \varphi(x,y,z), \quad (x,y,z) \in D,$$

va

$$u(x,y,z,t)|_S = \mu_1(x,y,z,t), \quad (x,y,z,t) \in S, \ \ t \geq 0,$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z, t)$ yechimi topilsin.

Ikkinchi chegaraviy masala.

Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasining $G = D \times (0, T)$ silindrik sohada aniqlangan, uzluksiz quyidagi boshlang'ich $u(x, y, z, t)|_{t=0} = \varphi(x, y, z), \quad (x, y, z) \in D,$

va

$$\frac{\partial \mathrm{u}}{\partial N}|_S = \mu_2(x, y, z, t) = -\frac{q(x, y, z, t)}{k(x, y, z)}, \qquad (x, y, z,) \in S, \qquad t \geq 0,$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z, t)$ yechimi topilsin.

UCHINCHI CHEGARAVIY MASALA.

Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasining

$$G = D \times (0, T) = \{(x, y, z, t) | (x, y, z) \in D \subset R^3, \ \ t \in (0, T)\}$$

silindrik sohada aniqlangan, uzluksiz quyidagi boshlang'ich

$$u(x, y, z, t)|_{t=0} = \varphi(x, y, z), \quad (x, y, z) \in D,$$

va

$$(\frac{\partial u}{\partial N} + h(x, y, z, t)u)|_S = \psi_3(x, y, z, t)\,, \qquad (x, y, z) \in \ S\,, \qquad t \geq 0,$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y, z, t)$ yechimi topilsin.

Yuqoridagi keltirilgan masalalar issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi, ya'ni parabolik tipdagi tenglamalar uchun $boshlang'ich - chegaraviy\, masalalar$ deyiladi.

1.3-§. Ekstremum prinsipi va yagonalik teoremasi.

Endi parabolik tipdagi tenglamalar issiqlik tarqalishi va diffuziya hodisalarini o'rganishda eng ko'p uchraydigan, asosan, parabolik tenglamalarning eng sodda vakili bo'lgan-sterjenda issiqlik tarqalishi tenglamasi

$$u_{tt} = a^2 u_{xx} + f(x,t) \tag{1.9}$$

misolida parabolik tipdagi tenglamalar uchun quyiladigan masalalar va ulardan birinchi chegaraviy masalaning mavjudligi va yagonaligini keltiramiz. Parabolik tipdagi tenglamalar uchun qo'yilgan chegaraviy masalalar va ularni echish usullarini [7; 152-160, 8; 143-152, 9; 400-407, 10; 208-213, 18; 3-141, 16; 329-346] adabiyotlardan ko'rish mumkin.

Birinchi chegaraviy masalaning qo'yilishi.

Berilgan $Q\{0 < x < l,\ 0 < t \le T\}$ sohada (1.9) tenglamaning

$$u|_{t=0} = \varphi(x) \quad (0 \le x \le l) \tag{1.10}$$

boshlang'ich va

$$u|_{x=0} = \mu_1(t), \quad u|_{x=l} = \mu_2(t), \quad (0 \le t \le T) \tag{1.11}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan yechimi topilsin. Bu yerda l uchi koordinat boshida bo'lgan sterjenining uzunligini, T esa Shu fizik jarayonni o'rganish qancha vaqt davom etishini bildiradi, $\varphi(x)$, $\mu_1(t)$, $\mu_2(t)$ lar ko'rsatilgan sohalarda berilgan funksiyalar.

Biz izlanayotgan $u(x,t)$ yechimni $\overline{Q}$ yopik sohada uzluksiz funksiya deb faraz qilamiz va Shuning uchun berilgan $f(x,t)$, $\varphi(t)$, $\mu_1(t)$, $\mu_2(t)$ funksiyalarni uzluksizligini va demak, $\varphi(0) = \mu_1(0)$, $\varphi(l) = \mu_2(0)$ bo'lishini talab qilamiz.

Agar (1.9)-(1.11) masalada (1.11) chegaraviy shart o'rniga

$$u_x|_{x=0} = \mu_1(t), \quad u_x|_{x=l} = \mu_2(t) \tag{1.12}$$

shartlar berilgan bo'lsa, masala ikkinchi chegaraviy masala, yoki (1.11) shartlar o'rniga

$$\left(\alpha u + \beta \frac{\partial u}{\partial x}\right)\Bigg|_{x=0} = \mu_1(t), \quad \left(\gamma u + \delta \frac{\partial u}{\partial x}\right)\Bigg|_{x=l} = \mu_2(t), \tag{1.13}$$

chegaraviy shartlar berilgan bo'lsa, masala uchinchi chegaraviy masala deyiladi. Umuman $x=0$ va $x=l$ da beriladigan shartlarni turli kombinatsiyalarini olish hisobiga chegaraviy masalalar sonini ancha ko'paytirish mumkin.

Qaralayotgan Q to'rtburchakning $t=0$, $x=0$ va $x=l$ chiziqlar ustida yotgan chegaralari yig'indisini Γ deb belgilaymiz.

Endi birinchi chegaraviy masalaning yagonaligi va mavjudligi masalasi bilan Shug'ullanamiz. Buning uchun parabolik tenglamalar uchun ekstremum prinsipi va undan kelib chiqadigan ba'zi bir xossalarni qaraymiz.

Teorema 1.1 (Ekstremum prinsipi). Yopik $\overline{Q}$ sohada uzluksiz bo'lgan va Q soha ichida bir jinsli

$$u_t = a^2 u_{xx} \tag{1.14}$$

tenglamani qanoatlantiradigan $u(x,t)$ funksiya o'zining eng katta va eng kichik qiymatlariga Γ chiziq ustida erishadi.

I s b o t. Faraz qilaylik, $u(x,t)$ funksiyaning Q to'rtburchak $\{0<x<l,\, 0<t\le T\}$ dagi eng katta qiymati M, Γ chiziq ustidagi eng katta qiymati esa m bo'lsin va ekstremum prinsipida aytilgan tasdiq o'rinli bo'lmasin. Bu degani Shunday $(\bar{x},\bar{t})$ ichki nuqta topilsinki, bu nuqtada $M>m$ bo'lsin deganidir. Quyidagi yordamchi

$$u(x,t) = u(x,t) + \frac{M-m}{2T}(\bar{t}-t)$$

funksiyani qaraylik. Q to'rtburchakning Γ chegarasida (ya'ni $t=0, x=0$ va $x=l$ da)

$$u(x,t) \le m + \frac{M-m}{2} = \frac{M+m}{2} < M$$

bo'lishini ko'rish qiyin emas. Shu bilan birga

$$u(\bar{x},\bar{t}) = u(\bar{x},\bar{t}) = M.$$

Demak, yordamchi $u(x,t)$ funksiya ham, $u(x,t)$ kabi o'zining eng katta qiymatiga Γ da erishmaydi.

Shunday ekan, faraz qilaylik $u(x,t)$ funksiya o'zining eng katta qiymatiga birorta ichki (x_1,t_1) $(0<x_1<l,\ 0<t_1<T)$ nuqtada erishsin. U holda, matematik analiz kursidan ma'lumki, Shu nuqtada

$$\frac{\partial^2 \mathrm{v}}{\partial \mathrm{x}_1^2} \le 0, \qquad \frac{\partial \mathrm{v}}{\partial \mathrm{t}_1} \ge 0$$

$(\mathrm{t}_1 < T)$ bo'lsa, $\frac{\partial v}{\partial t_1} = 0;$ $\mathrm{t}_1 = \mathrm{T}$ bo'lsa, $\frac{\partial u}{\partial t_1} \ge 0$

munosabatlar o'rinli buladi. Demak, (x_1,t_1) nuqtada

$$u_t - a^2 u_{xx} \ge 0 \tag{1.15}$$

tengsizlik bajariladi. Ikkinchi tomondan

$$u_t - a^2 u_{xx} = u_t - a^2 u_{xx} - \frac{M-m}{2T} = -\frac{M-m}{2T} < 0$$

bo'lishi kerak. Bu esa (1.15) ga zid. Demak, $M > m$ bo'ladigan nuqta topiladi deb qilgan farazimiz noto'g'ri va eng katta qiymat uchun prinsip isbotlandi. Eng kichik qiymat uchun ham xuddi Shunday isbotlanadi.

Teorema 1.1 isbotlandi.

Endi ekstremum prinsipidan kelib chiqadigan va chegaraviy masalalarni yechishda ko'p qo'llaniladigan ba'zi bir xossalarni isbotsiz keltiramiz [9; 408-415, 16; 329-346, 23; 1233-1257].

1-xossa. Agar $u(x,t)$ funksiya issiqlik tarqalish tenglamasining yechimi bo'lib, yopiq $\overline{Q}$ sohada eng katta (eng kichik) qiymatiga ega bo'lsa, u holda bu funksiya $\overline{Q}$ sohada o'zgarmasdir.

2-xossa. Agar $u(x,t)$ funksiya issiqlik tarqalish tenglamasining yechimi bo'lsa, u holda $\forall (x,t) \in \overline{Q}$ uchun quyidagi tengsizliklar o'rinli:

1) $\min\limits_{\Gamma} u(x,t) \le u(x,t) \le \max\limits_{\Gamma} u(x,t);$

2) $\quad |u(x,t)| \le \max\limits_{\Gamma} |u(x,t)|$.

3-xossa. Faraz qilaylik $u(x,t)$ funksiya issiqlik tarqalish tenglamasining yechimi bo'lsin. Agar $\forall (x,t) \in \Gamma$ uchun $u(x,t) \ge 0 (\le 0)$ bo'lsa, u holda $\forall (x,t) \in \bar{Q}$ uchun $u(x,t) \ge 0 (\le 0)$ o'rinli bo'ladi.

Isbotlangan ekstremum prinsipidan foydalanib (1)-(3) birinchi chegaraviy masala yechimining yagonaligini isbotlaymiz.

Teorema 1.2. Agar (1.9)-(1.11) masalaning yechimi mavjud bo'lsa u yagonadir.

Isbot. Haqiqatan ham, agar yechim ikkita u_1 va u_2 desak, ularning ayirmasi $u = u_1 - u_2$ bir jinsli (1.14) tenglamani qanoatlantiradi va biz quyidagi masalaga kelamiz.

Berilgan $Q\{0 < x < l,\ 0 < t \le T\}$ sohada (1.1.4) tenglamaning

$$u|_{t=0} = 0 \quad (0 \le x \le l) \tag{1.16}$$

boshlang'ich va

$$u|_{x=0} = 0, \quad u|_{x=l} = 0, \quad (0 \le t \le T) \tag{1.17}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

U holda ekstremum prinsipiga binoan $u(x,t)$ funksiyaning Q sohadagi eng katta qiymati ham, eng kichik qiymati ham nolga teng, demak $u \equiv 0$ yoki $u_1 = u_2$.

Teorema 1.10 isbotlandi.

Endi isbotlangan ekstremum prinsipidan foydalanib (1.1)-(1.3) birinchi chegaraviy masala yechimining turg'unligini olamiz.

Teorema 1.3. Agar (1.9)-(1.11) masalaning yechimi $f(x,t), \varphi(x), \mu_1(t)$ va $\mu_2(t)$ funksiyalarga uzluksiz bog'liq bo'ladi.

Isbot. Faraz qilaylik, $u_1(x,t)$ funksiya (1.9)-(1.11) masalaning $f(x,t), \varphi(x), \mu_1(t)$ va $\mu_2(t)$ funksiyalarga bog'liq bo'lgan yechimi, $u_2(x,t)$ funksiya (1.9)-(1.11) masalaning $f^*(x,t), \varphi^*(x), \mu_1^*(t)$ va $\mu^*{}_2(t)$ funksiyalarga bog'liq bo'lgan yechimi bo'lsin. Berilgan funksiyalar uchun

$$| f(x,t) - f^*(x,t) | < \varepsilon;\ \forall (x,t) \in Q;$$

$$| \varphi(x) - \varphi^*(x) | < \varepsilon;\ 0 \le x \le l;$$

$$| \mu_i(t) - \mu_i^*(t) | < \varepsilon;\ i = 1,2,\ 0 \le t \le T.$$

Tengsizliklar bajarilsin. U holda $\forall (x,t) \in Q$ uchun ekstremum prinsipidan kelib chiqqan 2-xossaga ko'ra

$$| u_1(x,t) - u_2(x,t) | \le \max_{\Gamma} | u_1(x,t) - u_2(x,t) | = \max\left\{ \max_{\bar{Q}} | f(x,t) - f^*(x,t) |,\right.$$

$$\left. \max_{x\in[0,l]} | \varphi(x) - \varphi^*(x) |, \max_{t\in[0,T]} | \mu_i(t) - \mu^*{}_i(t) | \right\} .$$

bo'ladi. Bundan Q sohada $| u_1(x,t) - u_2(x,t) | < \varepsilon$ tengsizlikni olamiz. Bu tengsizlik (1.9)-(1.11) masalaning turg'un ekanligini isbotlaydi.

Teorema 1.11. isbotlandi.

I bob bo’yicha hulosalar.

Ushbu bobda, issiqlik tarqalish tenglmalarini keltirib chiqarish, ekstremum prinspi va chegaraviy masalalarni yechishda ko’p qo’llaniladigan ba’zi bir xossalar, teoremalar ularning mavjudlik va yagonaligi isbotlari, qattiq jism va izotrop jismda iisiqlikning tarqalish tenglamasi, parabolik tipdagi tenglamalar issiqlik tarqalishi va diffuziya hodisalarini o’rganishda eng ko’p uchraydigan, asosan, parabolik tenglamalarning eng sodda vakili bo’lgan sterjenda issiqlik tarqalishi tenglamasi keltirilgan.

Ushbu bobda, xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining asosiy fundamental tushunchalaridan biri ko‘p o‘zgaruvchili ikkinchi tartibli tenglamalarni turlarga ajratish o‘rganilgan. Shu bilan birga issiqlik tarqalish tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning qo‘yilishi keltirilgan. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, boshlang‘ich-chegaraviy masalaning qo‘yilishi matematik fizika tenglamalari fanining klassik masalaridan biri bo‘lib, unda muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. CHEGARAVIY MASALARNI YECHISH USULLARI TAHLILI

2.1-§. Parabolik tenglamalar uchun Grin funksiyasi va xossalari

Magistirlik dissertatsiya ishining ushbu paragrafida issiqlik tarqalish tenglamasi uchun qo‘yilgan birinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasi va xossalari o‘rganilgan.

Ushbu tenglikka umumlashgan *Grin formulasi* deyiladi.

$$\int \ldots \int \left[vLu - uMv\right] dx_1 \ldots dx_n = \int \ldots \int \sum_{i=1}^{n} P_i \cos\left(v, x_i\right) d\tilde{A}$$

Grin formulasi soha bo‘yicha olingan integralni chegara bo‘yicha olingan integralga o‘tkazib beradi.

Eng sodda Grin formulasi quyidagicha

$$\iint \left[\frac{\partial Q}{\partial x} - \frac{\partial P}{\partial y}\right] dxdy = \iint \left[Qdy + Pdx\right]$$

Issiqlik tarqalish tenglamasi uchun chegarasi Γ sirtdan iborat bo‘lgan biror D sohada birinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasi deb $M\left(v\right)=0$ tenglamani va

1) $v\left(\xi,\tau\right)|_{\tau=t}=0$

2) $v\left(\xi,\tau\right)|_{PA}=v\left(\xi,\tau\right)|_{BQ}=G_o\left(x,t,\xi,\tau\right)$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimni topishga aytiladi.

Birinchi tenglama uchun Grin formulasidan foydalanib (1.3.1)-(1.3.2) masala yechimining integral ifodasini keltirib chiqaramiz. Quyidagi operatorni qaraylik.

$$M(v) = a^2 \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + \frac{\partial v}{\partial t} \tag{2.1}$$

$M(v)$ operator $\mathscr{L}(u)$ operatorga qo‘shma operator hisoblanadi. *PABQ* sohada ixtiyoriy $\varphi(x,t)$ *va* $\psi(x,t)$ yetarli marta differensiallanuvchi funksiyalar bo‘lsin.

Bu funksiyalar ushbu ayniyatlar uchun o‘rinli.

$$\psi L(\varphi)-\varphi M(\psi)=a^2(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x)_x-(\varphi\psi)_t \tag{2.2}$$

$$\psi L(\varphi)-\psi a^2\varphi_{xx}-\psi\varphi_t=a^2(\psi\varphi_x)_x-a^2\psi_x\varphi_x-\psi\varphi_t$$

$$\varphi M(\psi)=\varphi a^2\psi_{xx}+\varphi\psi_t=a^2(\varphi\psi_x)_x-a^2\psi_x\varphi_x+\varphi\psi_t$$

$$\psi L(\varphi)-\varphi M(\psi)=a^2(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x)_x-(\varphi\psi)_t$$

(2.2) ayniyatga Grin formulasini qo‘llaymiz. Natijada quyidagi ifoda hosil bo‘ladi.

$$\iint\limits_D[\psi L(\varphi)-\varphi M(\psi)]dxdt=\oint\limits_{\partial D}\left[\varphi\psi dx+a^2(\psi\frac{\partial\varphi}{\partial x})dt\right] \tag{2.3}$$

Bu ifodaning o‘ng tomoni *PABQ* yopiq kontur bo‘yicha olingan integralni anglatadi.

Agar (2.3) formuladagi $L(\varphi)=0$ va $M(\psi)=0$ bo‘lsa, u holda (2.3) ifoda ushbu

$$\oint_{PABQ}\left[\varphi\psi dx+a^2\left(\psi\frac{\partial\varphi}{\partial x}-\varphi\frac{\partial\psi}{\partial x}\right)dt\right]=0$$

ko‘rinishga keladi. Endi bu integralni *D* sohaning *PA, AB, BQ, PQ* chegaralari bo‘yicha yoyib chiqamiz.

$$\oint_{PABQ}\left[\varphi\psi dx+a^2\left(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x\right)dt\right]=-\int_{PQ}\left[\varphi\psi dx+a^2\left(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x\right)dt\right]+$$

$$+\int_{AB}\left[\varphi\psi dx+a^2\left(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x\right)dt\right]+\int_{BQ}\left[\varphi\psi dx+a^2\left(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x\right)dt\right]-$$

$$-\int_{AP}\left[\varphi\psi dx+a^2\left(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x\right)dt\right]=0$$

Natijada

$$\int_{PQ}\varphi\psi dx=\int_{AB}\varphi\psi dx+\int_{BQ}\left[\varphi\psi dx+a^2(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x)dt\right]-$$
$$-\int_{AP}\left[\varphi\psi dx+a^2(\psi\varphi_x-\varphi\psi_x)dt\right] \tag{2.4}$$

hosil bo‘ladi. Faraz qilaylik, $u(x,t)$ funksiya $L(u)=0$ tenglamaning biror yechimi va

$$G_0(x,t,\xi,\tau)=\frac{1}{2\sqrt{\pi a^2(t-\tau)}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}$$

issiqlik tarqalish tenglamasining fundamental yechimi bo‘lsin.

Agar $\varphi(x,t)=u(x,t)$ va $\psi(x,t)=G_0(x,t,\xi,\tau)$ deb olsak, u holda (2.4) ifoda quyidagi

$$\int_{PQ}G_0(x,t,\xi,\tau)u(x,t)dx=$$
$$=\int_{PABQ}\left[u(x,t)G_0(x,t,\xi,\tau)dx+a^2\left(G_0\frac{\partial u}{\partial x}-u\frac{\partial G_0}{\partial x}\right)d\tau\right]$$

ko‘rinishga keladi.

$G_0(x,t,\xi,\tau)$ funksiya $L(G_0)$ tenglamani x,t o‘zgaruvchilari bo‘yicha va unga qo‘shma bo‘lgan $M(G_0)$ tenglamani ξ,τ o‘zgaruvchilari bo‘yicha qanoatlantiradi.

$$L(G_0)=a^2G_{0xx}-G_{0t}=0$$

$$G_{0x}=\frac{1}{2\sqrt{\pi a^2(t-\tau)}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}\left(-\frac{2(x-\xi)}{4a^2(t-\tau)}\right)=-\frac{x-\xi}{4\sqrt{\pi}(a^2(t-\tau))^{\frac{3}{2}}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}$$

$$G_{0xx}=-\frac{1}{4\sqrt{\pi}(a^2(t-\tau))^{\frac{3}{2}}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}=+\frac{2(x-\xi)^2}{16\sqrt{\pi}(a^2(t-\tau))^{\frac{5}{2}}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}$$

$$G_{0t}=-\frac{1}{4a\sqrt{\pi}(t-\tau)^{\frac{3}{2}}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}=+\frac{2a^2(x-\xi)^2}{16\sqrt{\pi}(a^2(t-\tau))^{\frac{5}{2}}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}$$

ekanligini e'tiborga olsak, $L(G_0)=0$ bo'ladi. Xuddi shunday $M(G_0)=0$ ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Faraz qilaylik, $M(x,t)$ va $M_1(x,t+h)$ nuqtalar D sohaning ichidan olingan biror fiksirlangan nuqtalari bo'lsin. Bu yerda $h>0$ son $u(x,t)$ funksiyaning qiymatini $M(x,t)$ nuqtada aniqlaymiz. $M(x,t)$ nuqta orqali PQ xarakteristika o'tkazamiz va (2.3) formuladagi x ni ξ ga, t ni τ ga almashtiramiz. Belgilash kiritamiz

$$\varphi(x,t)=u(\xi,\tau)\ va\ \psi(\xi,\tau)=G_0(x,t+h,\xi,\tau) \tag{2.5}$$

deb olamiz. Natijada (2.3) formuladan quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\begin{gathered}\int_{PQ}\frac{1}{2\sqrt{\pi a^2 h}}e^{-\frac{(x-\xi)}{4a^2h}}u(\xi,\tau)d\xi=\\ =\int_{PABQ}\left[u(\xi,\tau)G_0(x,t+h,\xi,\tau)d\xi+a^2(G_0\frac{\partial u}{\partial\xi}-u\frac{\partial G_0}{\partial\xi})d\tau\right]\end{gathered} \tag{2.6}$$

$G_0(x,t+h,\xi,\tau)$ va $\dfrac{\partial G_0}{\partial\xi}$ funksiyalarning D sohada h parametr bo'yicha uzluksizligidan $h\to 0$ limitga o'tamiz. Unda

$$\lim_{h\to 0}\int_{BQ}\frac{1}{2\sqrt{\pi a^2 h}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2h}}u(\xi,\tau)d\xi=u(x,t) \tag{2.7}$$

hosil bo'ladi. Belgilash kiritamiz.

$$\frac{x-\xi}{2a\sqrt{h}}=z, \qquad \xi=x-2a\sqrt{hz}, \qquad d\xi=-2a\sqrt{h}dz$$

$$\lim_{h\to 0}\int_{BQ}\frac{1}{2\sqrt{\pi a^2 h}}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2h}}u(\xi,\tau)d\xi=$$

$$=\lim_{h\to 0}\left[\int_0^{+\infty}\frac{e^{-z^2}}{2\sqrt{\pi a^2 h}}u(x-2a\sqrt{hz},t)(-2a\sqrt{h})dz\right]=$$

$$=\frac{1}{\sqrt{\pi}}\int_0^{+\infty}\lim_{h\to 0}u(x-2a\sqrt{hz},t)e^{-z^2}dz=$$

$$=\frac{1}{\sqrt{\pi}}\int_0^{+\infty}u(x,t)e^{-z^2}dz=\frac{u(x,t)}{\sqrt{\pi}}\int_0^{+\infty}e^{-z^2}dz=\frac{u(x,t)}{\sqrt{\pi}}\sqrt{\pi}=u(x,t)$$

Agar (x,t) nuqta PQ xarakteristikada yotsa quyidagi asosiy integralni olamiz.

$$u(x,t)=\int_{PABQ}u(\xi,\tau)G_0(x,t,\xi,\tau)d\xi+\int_{BQ+PA}a^2\left(G_0\frac{\partial u}{\partial\xi}-u\frac{\partial G_0}{\partial\xi}\right)d\tau \qquad (2.8)$$

$$u(x,t)=\int_{PABQ}u(\xi,\tau)G_0(x,t,\xi,\tau)d\xi+\int_{PABQ}a^2\left(G_0\frac{\partial u}{\partial\xi}-u\frac{\partial G_0}{\partial\xi}\right)d\tau=$$

$$=\int_{PABQ}u(\xi,\tau)G_0(x,t,\xi,\tau)d\xi+\int_{BQ+PA}a^2(G_0\frac{\partial u}{\partial\xi}-u\frac{\partial G_0}{\partial\xi})d\tau$$

Bu yerda (2.8) ifoda issiqlik tarqalish tenglamasi ixtiyoriy yechimining integral ifodasi bo‘ladi. (2.8) ifodani umumiyroq ko‘rinishda yana bir marotaba yozamiz.

$$\begin{aligned}u(x,t)=&\int_{PABQ}\frac{e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}}{2\sqrt{\pi a^2(t-\tau)}}u(\xi,\tau)d\xi+\\&+a^2\int_{BQ+PA}\frac{e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}}{2\sqrt{\pi a^2(t-\tau)}}\frac{\partial u}{\partial\xi}d\tau-a^2\int_{BQ+PA}u(\xi,\tau)\frac{\partial}{\partial\xi}\left(\frac{e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4a^2(t-\tau)}}}{2\sqrt{\pi a^2(t-\tau)}}\right)d\tau\end{aligned} \qquad (2.8')$$

Oxirgi formulalar issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun qo‘yilgan chegaraviy masalaning yechimi bo‘la olmaydi. Chunki AE va BF egri chiziqlar

$u(x,t)$ va $\dfrac{\partial u}{\partial \xi}$ qiymatlarini bilishimiz kerak. Faraz qilaylik, $v(x,t)$ funksiya $M(v)=0$ qo‘shma tenglamaning PQ da $v=0$ shartni qanoatlantiruvchi biror yechimi bo‘lsin. D sohada $u(x,t)$ va $v(x,t)$ funksiyalarga (2.2) formulani qo‘llaymiz. Natijada

$$0=\int_{PABQ}\left[u(\xi,\tau)v(\xi,\tau)d\xi+a^2\left(v\frac{\partial u}{\partial \xi}-u\frac{\partial v}{\partial \xi}\right)d\tau\right] \qquad (2.9)$$

hosil bo‘ladi.

Endi (2.8) formuladan (2.9) ifodani ayiramiz va quyidagi

$$u(x,t)=\int_{PABQ}\left[u(\xi,\tau)G(x,t,\xi,\tau)d\xi+a^2\left(G\frac{\partial u}{\partial \xi}-u\frac{\partial G}{\partial \xi}\right)d\tau\right] \qquad (2.10)$$

ifodani olamiz. Bu yerda

$$G(x,t,\xi,\tau)=G_0(x,t,\xi,\tau)-v \qquad (2.11)$$

Agar v funksiyani quyidagicha

$$G|_{PA}=0, \quad G|_{BQ}=0$$

deb tanlasak, u holda $u(x,t)$ funksiya uchun ushbu ko‘rinishdagi

$$u(x,t)=\int_{AB}u(\xi,\tau)G(x,t,\xi,\tau)d\xi+a^2\int_{AP}u\frac{\partial G}{\partial \xi}d\tau-a^2\int_{BQ}u\frac{\partial G}{\partial \xi}d\tau \qquad (2.12)$$

ifodaga ega bo‘lamiz.

Bu formula issiqlik tarqalish tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalaning yechimini beradi. Bu yerda $G(x,t,\xi,\tau)$ funksiya (2.11) formula orqali aniqlanadi.

$v=v(\xi,\eta)$ funksiya quyidagi xossalarga ega:

1. $v(\xi,\tau)$ funksiya $PABQ$ sohada aniqlangan va ixtiyoriy $\tau<t$ uchun $M(v)=0$ qo‘shma tenglamani qanoatantiradi.

2. $v(\xi,\tau)|_{\tau=t}=0$ shartni qanoatlantiradi.

3. $v(\xi,\tau)|_{PA}=v(\xi,\tau)|_{BQ}=G_0(x,t,\xi,\tau)$

yuqorida keltirilgan xossalarga ko‘ra $v(\xi,\tau)$ funksiya x va t parametrlarga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni

$$v=v(x,t,\xi,\tau)$$

Bu funksiyani aniqlash uchun (1.3.1)-(1.3.2) masalaga qo‘shma bo‘lgan quyidagi masalani yechimi topishimiz zarur.

Qo‘shma masala. $M(v)=0$ tenglamaning quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

1. $v(\xi,\tau)$ funksiya ixtiyoriy $(\xi,\tau)\in PABQ$ uchun $M(v)=0$ qo‘shma tenglamani qanoatantiradi.
2. $v(\xi,\tau)|_{t=\tau}=0$ shartni qanoatlantiradi.
3. $v(\xi,\tau)|_{PA}=v(\xi,\tau)|_{BQ}=G_0(x,t,\xi,\tau)$

Issiqlik tarqalish tenglamasi uchun chegarasi $\tilde{A}$ sirtdan iborat bo‘lgan biror D sohada birinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasi deb $M(v)=0$ tenglamani va 2 va 3 shartlarni qanoatlantiruvchi yechimni topishga aytiladi.

2.2-§. Tabiy jarayonlarning ba’zi modellari.

Qattiq jismning ixtiyoriy vaqtdagi haroratni aniqlash uchun xususiy hosilali defferensiyal tenglamaning o’zi yetarli bo’lmaydi. Buning uchun masalaning fizik xossasiga asosan jism ichida boshlang’ich vaqtdagi haroratning taqsimlanishi (boshlang’ich shart)ni va jismning sirtida issiqlik rejimi (chegaraviy shartlar)ni bilish zarur.

Chegaraviy shartlar qattiq jism sirtidagi haroratga qarab turlicha berilishi mumkin. Biz bu paragrafda birinchi chegaraviy masalaning qo’yilishi, yechimining yagonaligi va mavjudligi keltiramiz.

Masalaning qo'yilishi.

$$u_t = u_{xx}, \quad (x,t) \in D \tag{2.13}$$

